

## **BOSHLANG'ICH SINIF “ONA TILI DARSЛИKLARI” TAHLILI**

**Mardonova Feruza A'zamjonovna**

O'zbekiston-Finlandiya instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

[ilmiyizlanuvchi@gmail.com](mailto:ilmiyizlanuvchi@gmail.com)

***Annotatsiya:** hozirgi kunda hamma sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham ko'plab islohatlar amalga oshirilmoqda. “Milliy o'quv dasturi” asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha darsliklari yangilandi. Darsliklarga ta'lim rivojlangan davlatlar darsliklari andozalariga tayangan holda yangidan yangi topshiriqlar, QRkodlar, mashqlar kiritildi va yangicha dizaynga ega bo'ldi. Bunday o'zgarishlar ta'lim tizimida ijobiy samarasini ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darsliklariga kiritilgan o'zgarishlar va ularning yutuqlari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, darsliklar, Milliy dastur, ona tili, boshlang'ich sinf o'quvchilari, innovatsion yondashuv.*

## **АНАЛИЗ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА «УЧЕБНИКИ РОЖДНОГО ЯЗЫКА»**

**Мардонова Феруза Азамжоновна**

Узбекско-Финляндский институт

Факультет дошкольного и начального образования

Студентка 4 курса начального образования

[ilmiyizlanuvchi@gmail.com](mailto:ilmiyizlanuvchi@gmail.com)

**Аннотация:** сегодня, как и во всех сферах, в системе образования реализуется множество реформ. Все учебники для младших школьников обновлены на основе «Национальной учебной программы». В учебники добавлены новые задания, QR-коды и упражнения на основе шаблонов учебников развитых стран и получили новый дизайн. Подобные изменения положительно влияют на систему образования. В данной статье размышляются изменения, внесенные в учебники начального языка, и их достижения.

**Ключевые слова:** начальная школа, учебники, Национальная программа, родной язык, учащиеся начальных классов, инновационный подход.

## **ANALYSIS OF PRIMARY CLASS "MOTHER LANGUAGE TEXTBOOKS"**

**Mardonova Feruza Azamjonovna**

Uzbekistan-Finland Institute

Faculty of preschool and primary education

4th year student of primary education

[ilmiyizlanuvchi@gmail.com](mailto:ilmiyizlanuvchi@gmail.com)

**Abstract:** today, as in all spheres, many reforms are being implemented in the education system. All textbooks for primary school students have been updated based on the "National Curriculum". New tasks, QR codes, and exercises were

*added to the textbooks based on the textbook templates of developed countries and got a new design. Such changes have a positive effect on the education system. This article reflects on the changes made to the primary language textbooks and their achievements.*

**Keywords:** *primary school, textbooks, National program, mother tongue, primary school students, innovative approach.*

O'zbek xalqi juda qadim zamonlardanoq ilm-fanga, katta e'tibor bilan qaragan va uni rivojlantirishga harakat qilgan. Ilm-ma'rifatga beqiyos hurmat bilan nazar solgan xalqimiz, qanday qiyinchilik va to'siqlar bo'lmasin o'z farzandlarini savodli bo'lishini istashgan. Maktab va madrasalarga ilimli domlo va mullalarga savod chiqarishga berishgan, hamda ular o'z uslublarida o'quvchilarga saboq bergan. Har bir davlatda o'qitishning o'ziga xos yo'nalishi mavjud bo'lib, O'zbekistonda ham o'ziga xos ta'lim tizimi mavjud va u rivojlanib bormoqda. Prezidentimiz tomonidan ta'lim sohasiga katta e'tibor berilib, 1997-yildan buyon amal qilib kelinayotgan "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlar yangilandi. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga qo'shimcha va o'zgartirish kiritildi, hamda senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullandi. Chunonchi 20-yillarda maktabni rivojlantirishda juda jiddiy xatolarga yo'l qo'yiladi. Kompleks dasturlarda ona-tilini o'rganish tizimi buziladi, grammatik, orfografik ko'nikmalarga yetarli ahamiyat berilmadi. Ammo, bu uzoq cho'zilmadi. 50-60-yillar mobaynida boshlang'ich sinflarda ona-tili o'qitish metodikasi sohasida anchagina qo'llanmalar yaratildi. Bu yillar mobaynida ona tili o'qitish metodikasi fan sifatida rivojlana boshlandi. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq, ona tili o'qitishga katta ahamiyat

berila boshlandi. Bunda 1989-yil 21-oktyabrda qabul qilingan " O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi" alohida o'rin tutadi. Ona tili tug'ilgandanoq ona allasi bilan qon-qonimizga singib ketadigan beqiyos kuchdir. Til- fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his, kechinmalarini ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til-jamiyat a'zolarining bir- biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Ona tili-nutq, o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko'nikmasini egallash bilan bir qatorda, o'z ona tilini o'rganishi zarur. Ona tili fani boshlang'ich sinfda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur. Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozov, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.
2. Birinchi sinfiga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu kamchiliklarni malakaga aylantirish.
3. Adabiy til normalarini, orfoepik to'g'ri talaffuzni o'rganish nutq va uslubiy elementlarni egallash.
4. Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarni shakllantirish.
5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badily, Ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda adabiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish.

Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili fani hal etadi va boshlang'ich sinflar ona tili dasturida aks etadi. Dastur davlat hujjati bo'lib, unda o'quv fanining mazmuni va hajmini shuningdek, shu fandan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga qo'yilgan asosiy talablar belgilaydigan bo'ladi. Dastur talablarini o'qituvchi va o'quvchilar bajarishlari shart, uni kengaytirish va qisqartirishga yo'l qo'yilmaydi. Maktablardagi sifatli ta'lim ko'p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog'liq. Ya'ni u ta'lim standartlariga javob berish bilan birgalikda o'quvchini qiziqtirish va fanga bo'lgan mehrini uyg'otishi kerak. 2023-2024-o'quv yilida taqdim etilgan ona tili darsliklari avvalgilaridan tubdan farq qiladi. Ko'rinishi jihatdan rang-barangligi, ayniqsa choraklarga bo'linib tarkib topganligi, o'quvchining qiziqishini oshirish bilan bir qatorda, ortiqcha takrorlashlar hamda, og'ir yukni ko'tarib yurishlaridan bartaraf etdi. Ayni o'sish davridagi bola uchun bu qator qiyinchiliklarni tug'diradi. 1-4 sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari "4K modeli"ga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etgan. Aslida Ona tili darsligi faqat mashqlar va qoidalar emas, balki didaktikaga oid tarbiyaviy ahamiyat hamda to'g'ri qaror qabul qilishi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu tasnifga ko'ra darslikdagi mashqlar o'quvchilarni izlanishga o'rgatish jihatidan quyidagi guruhga ajratiladi:

1. Qayta xotirlash tipidagi mashqlar.
2. Qisman izlanuvchanlik tipidagi mashqlar.
3. Ijodiy mashqlar.
4. Guruh bo'lib ishlash uchun topshiriqlar.
5. Yozma bajarish uchun mashqlar.

## 6. Uyga vazifa, hamda mavzuga doir grammatik qoidalar.

Boshlang'ich sinflar uchun tuzilgan Ona tili darsliklaridagi matnlar faqat tarixiy emas balki, zamonaviy hamda qiziqarli ma'lumotlardan tarkib topgan matn va ertaklari mavjud. Undagi g'oya o'quvchilarning bilimini mustahkamlash bilan bir qatorda didaktik ahamiyatga ega bo'lib ma'naviyatni mustahkamlashga ko'mak beradi.

Darslikda berilgan mashqlar faqatgina, nazariy ma'lumot olishga emas o'quvchilarni amaliy hayotga tayyorlashga qaratilgan. Bundan tashqari topshiriqlar orasiga "Loyiha ishi" topshiriqlari kiritilgan bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va individual yondashishga qaratilgan. Bunday topshiriqlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Ona tili darsliklarida kiritilgan kontekslar axborotli va badiiy kontekslar bo'lib, axborotli matnlar orqali o'quvchilar dunyoviy bilimlarga ega bo'lishadi. Darslikning tarkibiy qismlari xalqaro baholash dasturiga qo'yilgan talablarga monand qilib tuzilganligi eng afzallik tomoni desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Chunki O'zbekiston ham 2021-yilda yuqoridagi dastur asosida o'quvchilar bilimni baholash bo'yicha ushbu datur ishtirokchisi bo'ldi. Ushbu baholash dasturi 4-sinflarga ham PIRLS dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni o'qish va tushunish savodxonligi sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo'yicha boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan matnni o'qish va tushunish darajalarini solishtirish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Innovasion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.
2. Ishmuamedov R.J. M.E.Toirova, D.D.Baynazarova va b. Ona tili. Umumiy o'rta ta'limning 4-sinfi uchun darslik.-Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023-yil. “Novda Edutainment” nashriyoti.
3. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, “Tafakkur” nashriyoti, 2012-yil. – 96 bet.
4. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo'llanma.
5. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.
6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
7. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
8. Musurmonov R. Ta'lim faoliyati sharoitida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi nizolarning oldini olish – ta'lim samaralidorligi omili. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 | 2021.
9. Ismoilova D.M. Zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim mazmunini prognostika qilish. Xalq ta'limi” jurnali. 2019.
10. Bakhtikhon Kurbanova, & Makhfuza Omonillayeva. (2023). COOPERATIVE PEDAGOGY AS THE CONTENT OF PREPARATION FOR SOCIAL ACTIVITY. *Open Access Repository*, 4(3), 668–673. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/YZKXQ>.